

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA DIQQATNING TURLARI VA XUSUSIYATLARI.

**Oppoqxo‘jayev Xojixuja Azimjon o‘g‘li**

Qo‘qon davlat pedagogika instituti

Maxsus pedagogika kafedrası o‘qituvchisi

**Abdulazizova Shahnoza Muxammadsoli qizi**

Maxsus pedagogika yo‘nalishi 3-kurs talabasi

**Annotatsiya.** Bog‘cha yoshidagi bolalar diqqatining rivojlanishi faqat bog‘chadagi sharoitgagina emas, balki ko‘p jihatdan oiladagi sharoitga ham bog‘liq. Shuning uchun ham bolalarning diqqati bir tekisda va bir xil darajada rivojlanmaydi.

**Kalit so‘zlar:** diqqat, diqqat ko‘lami, diqqatni boshqarish, xarakter, maktab, maktab hayoti, psixik jarayon.

Ayrim bolalarda oilada tegishli nazorat ostida bo‘lmasligi, yoki haddan tashqari erka qilib, taltaytirib yuborganligi tufayli o‘zlarining xatti-harakatlarini xulq atvorlarini tartibga sololmaydilar, bunday bolalar hamma narsalarga ruhsatsiz tegaveradigan, bir joyda tinch o‘tira olmaydigan, tartibga chaqirilganda gapga quloq solmaydigan bo‘ladilar. Bunday bolalarda diqqat juda beqaror bo‘lgani uchun ular hech bir narsa ustida qunt bilan mashg‘ul bo‘la olmaydilar. Diqqatni boshqara olmaslik, ya‘ni malum muddat davomida bir narsaga yo‘naltira olmaslik mashg‘ulotlarda intizom buzish va boshqalarga halaqit berishga olib keladi. Ana shuning uchun tarbiyachilar bunday bolalarga nisbatan individual munosabatda bo‘lishlari, ularda diqqatning kuchini va barqarorlik xususiyatlarini tarbiyalab borishlari lozim. Bog‘cha yoshida bolalarda avvalgi davrlarga nisbatan diqqatning ko‘lami ancha kengayadi. Bolalar diqqatining ko‘lami kattalarnikiga nisbatan hali juda tor bo‘ladi. Masalan, katta odamlar diqqatining ko‘lami ayni vaqtda 5-6 narsani (bir-biri bilan bog‘lanmagan harflarni yoki raqamlarni) sig‘diraolsa, bog‘cha yoshidagi bolalar diqqatining ko‘lami ayni bir vaqtda bir-ikki narsanigina (kichik guruh bolalari bitta, o‘rta va katta guruh bolalari ikkita) sig‘dira oladi.

Kichik guruh bolalari diqqatlarini ikkita narsaga bo'lishga harakat qilsalar ham, ammo buning uddasidan chiqq olmaydilar. Masalan, 3yoshli bolaga bir piyola suv olib kelish buyurilsa, u albatta suvni to'kib, sochib olib keladi. Bu uning uquvsizligi bo'lganligi emas, balki o'z diqqatini ayni bir vaqtda ikkita narsaga bo'la olmasligidandir. Bola o'zining diqqatini yurib kelish bilan piyoladagi suvni to'kmay, chayqaltirmay olib kelishga bo'la olmaydi. Shuning uchun bunday hollarga bolalarni qo'yish yaramaydi. Diqqat ko'lamining kengligi aniq idrok qilish bilan bog'liq bo'lgan xususiyatdir. Bu xususiyat ayniqsa bolalarning o'qish faoliyatlari uchun zarur. Shuning uchun bolaning bog'cha yoshidagi davrida barcha imkoniyatlaridan keng foydalanib, diqqatning bu xususiyatini rivojlantirishga jiddiy ahamiyat berish lozim. Bunda asosan ekskursiyalar, har soxaga oid rasmlar bilan o'tkaziladigan suhbatlar katta rol o'ynaydi. Maktabdagi ta'lim jarayoni uchun zarur bo'lgan ixtiyoriy diqqat bog'chada didaktik mashg'ulotlar, hikoyalar qilib berish davomida rivojlantiriladi. Bog'cha yoshidagi bolalarning diqqati ko'pincha ularning qiziqish hamda hissiyotlari bilan bog'liqligi sababli to'plangan, ya'ni bir narsaga qaratilgan bo'ladi. Ana shuning uchun bu yoshdagi bola diqqatining bo'linuvchanlik xususiyati deyarli rivojlanmagan bo'ladi. Bog'cha yoshidagi bolalar diqqati bo'linuvchanlik xususiyatining zaifligi va ko'lamining torligi sababli, ular ayrim narsalarni qayta-qayta idrok qilib, eslarida olib qolishga harakat qiladilar. Masalan, bog'cha yoshidagi bolalar, odatda bir hikoyani qayta-qayta eshita oladilar. Bu hodisaning sababi shundaki, bolalar diqqatining ko'lami hikoyaning syujetini va personajlarini birdaniga sig'dira olmaydi. Shuning uchun ular hikoya va ertaklarni qayta-qayta aylantirib eshita oladilar. Shunday qilib, bolaning bog'chaga va bog'cha yoshidagi davrida diqqat ancha rivojlanadi. Bu davrda asosan diqqatning ixtiyorsiz turi tezroq rivojlanadi. Lekin bolaning bog'cha yoshida faoliyatlarining va xususan didaktik hamda mehnat mashg'ulotlarining tizimli tarzda ortib borishi, ularda ixtiyoriy diqqatning rivojlanishiga olib keladi. Ma'lumki maktabdagi ta'lim jarayoni ixtiyoriy diqqatsiz bir qadam ham siljayolmaydi, shuning uchun bog'cha turli majburiy mashg'ulotlar

orqali bolalarda ixtiyoriy diqqat va diqqatning asosiy xususiyatlarini rivojlantirishga harakat qilish kerak. Diqqatning bundan keying taraqqiyoti maktabda ta'lim jarayonida amalga oshiriladi. Bog'cha yoshidagi bolalarda ayrim psixik jarayonlarning rivojlanishi bilan birga ularning shaxsi va shaxsiy xislatlari ham tarkib topa boshlaydi. Bolaning tashqi muhitdagi narsa va hodisalar hamda o'ziga nisbatan bo'lgan to'g'ri, oqilona munosabatlarining asosi huddi shu davrda yuzaga keladi. Bundan tashqari, bog'cha yoshidagi davrda bolaning qobiliyatlari tez rivojlanib, yangi yangi ehtiyojlar va qiziqishlar hosil bo'ladi. Bola shaxsining ana shunday rivojlanib borishi natijasida uning xarakteriga oid sifatlar namoyon bo'la boshlaydi. Bog'cha yoshidagi davrda bolada qanday xarakter xislatlari tarbiyalansa, bu xislatlar bolaning maktab yoshidagi davrda va hatto katta odam bo'lib yetishganida ham namoyon bo'ladi. Shuning uchun boshqa yoshdagi davrda bolada ijobiy shaxsiy xislatlarning tarkib topishiga alohida ahamiyat berish lozim. Bolalar bog'cha yoshidan boshlab xulq-atvorining axloqiy normalari va qoidalarini intensiv ravishda o'zgartira boshlaydilar. Ular o'zlarining u yoki bu xatti-harakatlariga kattalar tomonidan beriladigan baholarga zo'r qiziqish bilan qaraydilar. Shuning uchun ular hamisha nima yaxshi-yu, nima yomonligini, qanday harakat to'g'ri-yu qanday harakat noto'g'riligini aniqlashga intiladilar. Bunday ishda bolalarga hamisha yordam berish kerak, ularning bunday harakatlarini qo'llab-quvvatlash lozim. Lekin shuni sedan chiqarmaslik kerakki, axloqiy norma va qoidalarni amalda kattalar hamda tengdoshlari bilan bo'lgan munosabatda qo'llay olish tajribasiga ega bo'lishi kerak. Shundagina bu axloqiy norma va qoidalarni singdira oladi. Ana shuni nazarda tutib, bolalar bilan munosabatda axloq normalari va qoidalaridan chetga chiqmay, bu sohada ularga namunalar ko'rsatish kerak. Shunday qilib, yuqorida aytib o'tganimizdek, bolaning bog'cha yoshidagi davrida uning faqat psixik jarayonlarigina emas, balki shaxsi va shaxsiy sifatleri kamol topadi.

Xulosa qilib aytsak, maktabga borish bolalarning hayotida juda katta voqeadir. Maktab hayoti bolalarga yangi bir dunyoni ochib beradi, maktab davrida

bolalarning asosiy faoliyatlari o'zgaradi. Maktab yoshidan boshlab bolalarning asosiy faoliyatlari, asosiy vazifalarini o'tish, fan asoslarini puxta o'zlashtirish bo'lib qoladi. Yetti yoshli bolalar uchun yangi faoliyat bo'lgan o'qish ulardan yangi sifat, yangi xususiyatlarga ega bo'lishlarini talab qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy psixologiya E. G'oziyev Toshkent "Universitet"-2002
2. Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja. "YUQORI SINF O'QUVCHILARINI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH JARAYONINI TASHKIL ETISH TAMOYILLARI." *Science Promotion* 1.2 (2023): 18-25.
3. Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja, and Muxammadjonov Shohruhbek Shuxratbek o'g'li. "INKLYUZIV TA'LIMNING HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI." *Science Promotion* 1.1 (2023): 50-57.
4. Oppoqxo'jayev, Xojixuja, and Faxriddin To'ychiboyev. "MAXSUS EHTIYOJLI BOLALARNING TA'LIM-TARBIYASIDAGI TENG HUQUQLILIK MUAMMOSINI HAL ETISHDA INKLYUZIV TA'LIMNI AHAMIYATI." *Инновационные исследования в науке* 2.5 (2023): 27-33.
5. Oppoqxo'jayev, Xojixuja, and Qunduzabibi Yusupova. "MAXSUS PEDAGOGIKA FANLARINI O'QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARGA ASOSLANGAN AMALIY MASHG'ULOTLARINI LOYIHALASH." *Development and innovations in science* 2.5 (2023): 25-31.
6. Oppoqxo'jayev, Xojixuja, and Ozoda Samayeva. "INKLYUZIV TA'LIMGA JALB QILINGAN O'QUVCHILARDA TAYANCH KOMPETENTSIYALARINI SHAKLLANTIRISH USULLARI." *Молодые ученые* 1.2 (2023): 99-102.
7. Oppoqxo'jayev, Xojixuja, and Nozima Yakubova. "METHODS USED IN FORMING NATIONAL ETIQUETTE SKILLS IN PRIMARY CLASS STUDENTS OF SPECIAL SCHOOLS." *Молодые ученые* 1.2 (2023): 103-107.
8. Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja. "INCLUSIVE EDUCATIONAL STRUCTURE AS A SOCIAL PHENOMENON." (2023).
9. Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja. "THE EFFECTIVENESS AND DRIVING FORCES OF THE APPLICATION OF PEDAGOGICAL

- METHODS IN THE PROCESS OF INCLUSIVE EDUCATION." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.3 (2023): 558-562.
10. Azimjon o'g, Oppoqxo'jayev Xojixuja, and Yigitaliyeva Sarvinoz. "WAYS TO INVOLVE CHILDREN IN NEED OF SPECIAL HELP IN INCLUSIVE EDUCATION." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.3 (2023): 519-523.
  11. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon, and Oppoqxo'jayev Xojixuja Azimjon o'g. "THE IMPORTANCE OF INCLUSIVE EDUCATION IN SOLVING THE PROBLEM OF EQUALITY IN THE EDUCATION OF CHILDREN WITH SPECIAL NEEDS." *Open Access Repository* 4.3 (2023): 757-764.
  12. Oppokkhujayev, Khojikhujaja, and Makhliyo Yuldoshzoda. "PRINCIPLES OF WORKING WITH CHILDREN WITH COCHLEAR IMPLANTS." *International Conference on Education and Social Science*. Vol. 1. No. 1. 2023.
  13. Oppokkhujayev, Khojikhujaja, and Ziyoda Shavkatova. "PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR THE FORMATION OF NATIONAL ETIQUETTE SKILLS IN ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS OF A SPECIAL EDUCATIONAL INSTITUTION." *International Conference on Multidisciplinary Research*. Vol. 1. No. 1. 2023.
  14. Sadikovna, Rakhimova Khurshidahon. "Objectives and tasks of cochlear implantation." *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal* 12.4 (2022): 671-675.
  15. Sodikovna, Rakhimova Khurshidahon. "Preparation of preschool children with cochlear implants for independent learning." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* 8.8 (2020): 159-161.
  16. Sodikovna, Rakhimova Khurshidahon. "Use Of Innovative Technologies In The Formation Of Speech Skills In Children With Hearing Disabilities." *Euro-Asia Conferences*. Vol. 1. No. 1. 2021.
  17. Shahnigor, Rakhimova Khurshidakhon Sadikovna Khomidova. "FORMATION OF KNOWLEDGE, SKILLS AND COMPETENCES IN THE PROCESS OF TRAINING CHILDREN WITH HEARING DEFECTS TO WORK." *Confrencea* 3.03 (2023): 188-192.
  18. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon. "COCHLEAR IMPLANTATION: AN INNOVATION IN THE DEVELOPMENT OF TECHNOLOGY,

- MEDICINE, DEAF PEDAGOGY AND SPEECH THERAPY." *Open Access Repository* 4.2 (2023): 321-330.
19. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon, and Rustamova Feruzabanu. "CONTRIBUTION OF CHARLES MIKHAIL EPE TO THE EDUCATION OF DEAF CHILDREN." *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal* 11.3 (2023): 563-566.
  20. O'ghiloy, Rakhimova Khurshidakhon Sadikovna Kurbanuva. "CHILDREN WITH LOCAL MOVEMENT DEFECTS." *Confrencea* 3.03 (2023): 226-230.
  21. Raximova, Xurshidaxon. "NATIONAL AND FOREIGN ADVANCED TRENDS IN HIGHER EDUCATION EFFICIENCY IMPROVEMENT." *JOURNAL OF NORTHEASTERN UNIVERSITY* (2022).
  22. Sadikovna, PhD Rakhimova Khurshidakhon, and Nabiyeva Umidakhan. "ORGANIZING SOCIAL WORK ACTIVITIES OF STUDENTS WITH HEARING PROBLEMS." (2023).
  23. Sadikovna, PhD Rakhimova Khurshidakhon, and Odilova Rislig'oy. "PROBLEMS OF PREPARING HIGH SCHOOL STUDENTS WITH HEARING DEFECTS FOR FAMILY LIFE." (2023).
  24. Sadikovna, PhD Rakhimova Khurshidakhon, and Sharafuddinova Zuhra. "FORMATION OF MATHEMATICAL CONCEPTS OF CHILDREN WITH HEARING DEFECT USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES." (2023).
  25. Komiljon, Raximova Xurshidaxon Sadikovna Sattarova Kamola. "PEDAGOGICAL AND EDUCATIONAL SYSTEM OF EDWARD SEGEN IN SPECIAL PEDAGOGY." *Confrencea* 3.03 (2023): 63-67.
  26. Sadikovna, Rakhimova Khurshidakhon. "CORRECTIONAL AND PEDAGOGICAL WORK SYSTEM OF AUDITORY-SPEECH REHABILITATION OF CHILDREN WITH COCHLEAR IMPLANTS." *International Journal of Early Childhood Special Education* 14.6 (2022).
  27. Madinakhan, Makhmudova, and Abduvahobova Irodakhan. "PECULIARITIES IN THE DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN WITH MENTAL RETARDATION." (2023).
  28. Feruza, Teshabaeva, Mahmudova Madina, and Yuldasheva Dilbar. "The essence of inclusive education in developed countries." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol* 8.1 (2020).
  29. Sobirkhanovna, Makhmudova Madinakhan, and Akhmedova Vazirakhan. "EFFECTIVE ORGANIZATION OF CORRECTIONAL-LOGOPEDIC WORK IN CHILDREN WITH CEREBRAL PALSY." *Open Access Repository* 4.3 (2023): 134-141.

30. Teshaboeva, Feruza Raximovna. "Literacy education of speech impaired children as a pedagogical psychological problem." *Confrencea* 5.05 (2023): 299-302.

